

XONANDA NUTQINING TOMOSHABINGA TA'SIRI



Ma'ruf Qodirov

Katta o'qituvchi

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek
milliy musiqa san'ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-28>

Annotatsiya: Xonandaning sahnasidagi ijrolarida nutq masalasi muhim rol o'ynaydi, chunki har bitta so'z auditoriya va ijrochi san'atkor o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydi. San'atkor xonanda nutqi tomoshabinlarni konsert dasturiga jalb qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning nutqlari, ijro va hatti-harakatlari tomoshaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada nutq xonandaning asosiy vositalardan biri hisoblanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sahna, tomoshabin, xonanda, rejissyor, konsert, nutq.

Аннотация: Вопрос речи играет важную роль в выступлении певца на сцене, ведь каждое слово обеспечивает взаимодействие зрителя и артиста-исполнителя. Речь артиста-певца направлена на привлечение зрителей к концертной программе, а их речь, исполнение и действия влияют на развитие выступления. В данной статье говорится о том, что речь считается одним из главных инструментов певца.

Ключевые слова: Сцена, публика, певец, режиссер, концерт, речь.

Abstract: In the singer's performances on stage, the issue of speech plays an important role, since each word provides an interaction between the audience and the Performing Artist. The speech of the artist singer is aimed at attracting the audience to the concert program, and their speeches, performances and deeds affect the development of the performance. This article will talk about the fact that speech is considered one of the main tools of the singer.

Keywords: stage, audience, singer, director, concert, speech.

San'at inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladigan kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Musiqa esa inson qalbini larzaga solib, turli hissiyotlarni uyg'ota oladigan san'at turlaridan biridir. Xonandaning nutqi esa uning ijodiy mahoratini, ta'sirchanligini va tinglovchi bilan aloqasini belgilab beradigan muhim omillardan biridir. Ushbu maqolada xonanda nutqining o'ziga xos jihatlari va uning san'atdagi o'rni haqida so'z yuritimiz.

Emotsionallik va Ta'sirchanlik: Xonanda nutqi tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir qila olishi kerak. Har bir so'z, har bir ohang tinglovchini ma'lum kayfiyatga olib kelishi muhim. Masalan, dardli qo'shiqlarda ovozning mayin va ichki hissiyotlarga boy bo'lishi zarur, quvnoq qo'shiqlarda esa shijoat va energiya sezilib turishi lozim.

Diksiyaning Ravonligi: Xonandaning diksiyasi (talaffuzi) to'g'ri va aniq bo'lishi kerak. Chunki tinglovchi aytilayotgan so'zlarni aniq tushunishi lozim. Agar nutq loyqa yoki tushunarsiz bo'lsa, bu qo'shiqning ta'sirini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, jonli ijro paytida diksiyaga e'tibor berish juda muhim.

Nafasni To'g'ri Boshqarish: Xonanda nutqida to'g'ri nafas olish texnikasi katta ahamiyatga ega. Chunki nafasni noto'g'ri taqsimlash ovozning sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Nafasni boshqarish orqali xonanda uzoq jummalarni charchamasdan, ravon va ta'sirli ifoda eta oladi.

Ohangdorlik va Ritmga Moslashish: Xonanda nutqi ohangdor bo'lishi, musiqa ritmiga mos kelishi kerak. Qo'shiq matni va musiqasi o'zaro uyg'unlashganda, tinglovchida chuqur ta'sir qoldiradi. Xonanda ovozi orqali so'zlarning ma'nosini chuqurroq yetkazishi mumkin. Har bir So'zning ichki ma'nosini ochib berish: Oddiy gapirish va san'atkorning nutqi o'rtasida katta farq

bor. Xonanda ijro etayotgan qo‘shiq matnining har bir so‘ziga ma‘no yuklashi va uni qalbdan his etib aytishi kerak. Faqat shu yo‘l bilan u tinglovchilarga ta‘sir ko‘rsata oladi.

Xonandaning nutqi faqat qo‘shiq aytayotganda emas, balki sahnada, intervyularda, muxlislar bilan muloqotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning so‘zlash uslubi, madaniyati va ifodaviyligi uning shaxsiy brendi hamda obro‘sigga ta‘sir qiladi. Shuningdek, xonandaning nutqi musiqa san‘atining turli janrlariga qarab farqlanadi. Masalan:

- Klassik xonandalar (maqomchilar, opera ijrochilari) talaffuzga, ohangdorlikka va nafasni to‘g‘ri ishlatishga katta e‘tibor qaratishlari kerak.

- Estrada xonandalari emotsionallik va sahnada erkin nutq bilan tinglovchilar bilan aloqani o‘rnatishlari lozim.

Sahna san‘atida so‘zning kuchi, qudrati, tomoshabinlar uchun tushunarli bo‘lishi asosiy tamoyillardan biridir. Bu bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orqali ijrochi tomoshabinga hissiyot, mazmun va voqeani aniq yetkazishi lozim. Bunda albatta diksiyaning o‘rni juda muhim, so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish san‘ati bu diksiyadir. Xonandaning sahnadagi har bir so‘zi tomoshabin uchun tushunarli bo‘lishi juda muhim. Chunki sahnadagi so‘z yoki nutqiy yondashuvning asosiy maqsadi - tomoshabinlarga aniq va ravshan tarzda ma‘lumot yetkazishdir. Bu san‘atkorning diksiyasi, talaffuzi va ovoz balandligiga ham bog‘liq. Tomoshabinlar aytilayotgan so‘zlarni tushunishi konsert dasturining mazmuni va hissiyotlarini to‘g‘ri qabul qilishiga yordam beradi. Dramaturg va adabiyotshunoslar tabiri bilan aytganda “Drama tilining eng muhim talablaridan biri-soddaligidir. Kishi ijro etar ekan, unda tushunmagan so‘z ustida o‘ylash,uning ma‘nosini esga olish,yoki lug‘atlardan qarab esga olish imkoniyati bor.Teatr tomoshabini esa bunday imkoniyatga ega emas.Shu sababli sahnada aytilgan har bir so‘z uning uchun tushunarli bo‘lishi shart.” Spektakildagi qahramonlar qaysi davrda,tarixiy davrmi,milliy yoki hozirgi zamonaviy davrda yashagan bo‘lmasin,tomosha zalida o‘tirgan tomoshabinlarning tiliga juda yaqin soddada tilda gaplashmoqlari juda zarur ahamiyatga ega deb bilamiz. Shu jumladan xonandalarda ham musiqiy ijro, kuylash qobiliyati bilan birgalikda sahnaviy nutq ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi zarur.

Noaniq yoki xira talaffuz tomoshabinlarni chalg‘itib qo‘yishi va asar mazmunini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Sahna ovozi, ya‘ni ijrochining ovozi, sahna kattaligiga, tomoshabinlar o‘rindiqlarining joylashishiga va muhitga mos kelishi kerak deb bilamiz. Juda past ovoz tomoshabinlarga yetib bormasligi, juda baland ovoz esa ularni charchatishi mumkin. Ijrochi ovoz balandligi va ohangini nazorat qilib, tomoshabinlarning e‘tiborini saqlashi lozim. Ovoz ohanglari esa voqea-tushunchalarning hissiy mazmunini to‘g‘ri ifoda etishga yordam beradi.Xonanda nutq qilganda so‘zlarni ortiqcha shoshilmay aytish tomoshabinlarga voqea rivojini tushunishga yordam beradi. Juda tez gapirish tomoshabinlarni chalg‘itishi mumkin. Har bir jumla va so‘zlar orasidagi pauzalar ham asarning urg‘ularini belgilab beradi va tomoshabinlarga chuqurroq anglash imkonini beradi.To‘g‘ri har doim so‘zlar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun mimikalar, tana harakatlari, jestlar ham tomoshabinlarga ma‘no yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Ijrochi tanasi orqali qo‘shimcha ma‘lumot va hissiyotlarni yetkazishi, nutq ta‘sirini boyitishi mumkin.Sahnada bo‘shliqni to‘ldirish, harakat va qadamlarni to‘g‘ri rejalashtirish ham tomoshabinlarga aytilayotgan gapning aniq yetib borishiga yordam beradi. Tomoshabinlarning ijrochini barcha joydan sahnani ko‘rishi va eshitishi muhimdir, shuning uchun sahna bo‘ylab harakatlanish to‘g‘ri amalga oshirilishi kerak. Konsert zallarda va ochiq havodagi sahnalarda ovoz kuchaytirgichlar, mikrofonlar va akustik jihozlar ishlatiladi. Ushbu texnik vositalar tomoshabinlar uchun so‘zlarni eshitish va tushunishni osonlashtiradi.Tushunarli nutq va ijro uchun ijrochilarning repetitsiya jarayoni muhimdir. Bu vaqt mobaynida har bir ijro, har bir sahna harakati va ohang sinchiklab ishlab chiqiladi. Repetitsiyalar orqali san‘atkor o‘z ijrosi va so‘zlarini tomoshabinlarga qanday yetkazishi kerakligini to‘g‘ri anglaydi.Sahnadagi chiqishlarda tomoshabinlar bilan o‘zaro bog‘lanish - ularning javoblarini his qilish ham muhimdir. Tomoshabinlarning diqqatini o‘ziga qaratish va ularni o‘z ijrosi g‘oyasining ta‘siriga tortish ijrochining mahoratiga bog‘liqdir. Bularning barchasi tomoshabinlarga ijro mohiyati va hissiyotlarni to‘g‘ri yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Sahnadagi har bir so‘z nafaqat

talaffuz, balki mazmun, ritm va ifoda orqali to'g'ri o'qilishi kerak, chunki har bir ijro asarida muhim fikr va ma'no yotadi. Sahnadagi nutqning tomoshabinga yetkazilishida qo'shimcha jihatlar ham mavjud. Bu jihatlar sahna san'ati tarixida shakllangan va amaliyotda faol qo'llanilib kelmoqda. Har bir san'at janri yoki uslubi nutq va ijro texnikasiga ta'sir qiladi. Ijrochi ijrosi va aytayotgan so'zlar ortida turgan tuyg'ular ham muhim. Aytilgan so'zning hissiyotini o'z ichida his qilmagan san'atkor, so'zlarning jonli va kuchli chiqishini ta'minlay olmaydi. Ijrochi o'zining ichki dunyosini to'liq ochib berish uchun turli ohanglari va pauzalarni qo'llaydi. Ba'zi sahnalar to'g'ridan-to'g'ri aytilganidan ko'ra chuqurroq ma'no yoki yashirin mazmunni o'z ichiga oladi. Bunday sahnalarda "subtekst", ya'ni so'zlar ortida yotgan yashirin ma'nolar ifodasi dolzarb bo'ladi. Ijrochi subtekstni tushunib, uni o'z harakatlari, ovozi yoki imo-ishoralari orqali tomoshabinga yetkazishi kerak. Xonandalarning nutqiy faolligi sahnada juda muhim sahnaladi. Ijrochi sahnaga ijro qilishdan oldin u asar haqida tomoshabinlarga tushuncha berib o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Doimo sahnada ijrochi o'z so'zlarni aniq yetkazishi va ifodaviy nutq texnikalaridan foydalanishi lozim. Sahnada dekoratsiyasi va yoritish ham tomoshabinning so'zlarni qanday qabul qilishiga ta'sir qiladi. Yorug'lik va ranglar tomoshabinning diqqatini ma'lum bir nuqtaga qaratishi yoki sahnada yaratilgan muhit bilan birgalikda ijrochining so'zlarini kuchaytirishi mumkin. Rejissyor tomosha yoki konsert mazmunini qanday yetkazish kerakligini, so'zlar va harakatlarni qanday sinxronlashtirish lozimligini belgilaydi. Badiiy yo'nalish esa, ijrochilarning nutqi va ifodaviy vositalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Sahnadagi nutq tomoshabinlarning madaniyati, ularning sahnaga bo'lgan munosabati va kutgan kutilmalariga ham bog'liq. Turli jamiyatlarda yoki davlatlarda sahna san'ati va nutq uslubi farqlanishi mumkin, shu bois san'atkorlar va rejissyorlar bu omilni ham hisobga olishi zarur deb bilamiz. Sahnada barcha bu jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tomoshabinlar bilan ijodiy bog'lanishni ta'minlaydi va konsertlarning muvaffaqiyatini oshiradi. Shu o'rinda aytish kerakki, ijrochi nutqi va notiq nutqi borasida ham chalkash, bir-biriga zid fikrlar ham yuradi. Ularning mushtarak va farqli jihatlarini e'tirof etgan holda, ta'bir joiz bo'lsa, shunday taqqosni keltirish o'rinlidir. Notiq nutqi va sahna (ijrochi) nutqi ta'sirchanlikni ta'minlashda har ikkalasi bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Lekin birida ijod, ikkinchisida ijro muhim rol o'ynashini yodda tutish kerak. Avtobus va tramvayni ko'z oldingizga keltiring. Avtobusni boshqarishda rulni o'ng-u so'lga burib harakatlantirish, qayrilish mumkin. Tramvayni esa yotqizilgan temir yo'li (rels) va ustidagi elektr manbai (simlarisiz) uning harakatini tasavvur qilish mushkul. Faqat harakatning sekin va tezligiga, uning izmida. Notiq nutqi avtobus haydovchisiga, ijrochi nutqi esa tramvay boshqaruvchisiga o'xshaydi.

Xonanda sahnaga faqatgina asardagi matn yoki ijrosini yodlab chiqmaydi, balki, har xil holat va harakatlarga ham tayyorgarlik ko'rib chiqadi. So'z san'ati san'atlar ichida eng buyugi bo'lishi barobarida barcha joyda juda katta va ulkan vazifalarni bajaradi. Xuddi, shuningdek, xonanda ijrosida sahnada ham o'ziga yuklatilgan vazifani qoyilmaqom qilib bajaradi. Buning uchun iqtidor, iqtidor va yana iqtidor bo'lishi lozim bo'ladi. Shu o'rinda "nega" degan savol tug'ilishi tabiiy. Sababi, so'zning mo'jizaviyligi, uning qudrati, sehra jozibasi va boshqa jihatlari ziyarak sab'atkorni so'z ustida qayta-qayta mehr bilan, sabot bilan ishlashga da'vat etadi. Bu ma'suliyat, g'ayrat, shijoat, imtihon va natijadir.

Xonandalik san'ati sahna nutqining ovoz texnikasiga bo'lgan ta'sirini o'zgacha darajada ko'rsatadi. Xonanda ijrosida sahna nutqi ovozning sifatini, uning ohangdorligini va barcha vokal usullarini chuqurroq ishlashni talab qiladi. Nutqni faqat ovoz bilan izohlash mumkin emas, balki nutq va ovoz o'rtasidagi uyg'ulashni talab qiladi.

unlikni, masalan, vokalni kuchaytirish, yumshatish, yoki tinchlantirish orqali, tomoshabinga musiqaning turli qatlamlarini yetkazish kerak. Xonanda sahna nutqini ishlatishda o'zining vokal qobiliyatlarini yanada kengaytiradi va uning ijro texnikasi chuqurlashadi. Maqom ijrosidagi sahna nutqi nafaqat matnni o'qish, balki uning ma'nosini yoritish, tomoshabinga yetkazish usulidir. Xonanda nutqni ovoz bilan uyg'unlashtirib, musiqaning asosi bo'lgan mazmunni to'liq ifodalaydi. Nutqning o'ziga xos xususiyatlari sahna nutqining nafaqat vokal,

balki dramatik ifodasi hamda tomoshabinga tasavvur qilinmagan ijro hissiyotlarini yetkazishda samarali vosita hisoblanadi.

Sahna san'atida so'zning ko'chi,qudrati,tomoshabinlar uchun tushunarli bo'lishi asosiy tamoyillardan biridir. Bu bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ular orqali ijrochi tomoshabinga hissiyot, ashula yoki qo'shiq mazmunini aniq yetkazishi lozim.Bunda albatta diksiyaning o'rni juda muhim,so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish san'ati bu diksiyadir. Sahna nutqini o'qitishda diksiyaga alohida e'tibor beriladi, chunki sahnada aytilayotgan har bir so'z tomoshabinga aniq yetib borishi kerak.

Xonanda nutqi uning ijodiy mahoratini, san'atdagi mavqeini va tinglovchilarga ta'sir qilish qobiliyatini belgilab beradi. To'g'ri talaffuz, emotsionallik, nafasni boshqarish va ritmga moslashish kabi omillar xonandaning ovoz san'atini yuksak darajaga olib chiqadi. Shu bois, har bir san'atkor nafaqat ovozi, balki nutq madaniyatini ham rivojlantirishi kerak.

San'atni sevgan har bir inson uchun nutq shunchaki gapirish vositasi emas, balki his-tuyg'ularni yetkazish quroli bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Izzat Sulton.Adabiyot nazariyasi.-Toshkent o'qituvchi 1980- B 223
2. O'zbek tilining izohli lug'ati.-Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.1999-B.45
3. Abduazizov A. A., Yo'ldoshev M. A. "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
4. Yo'ldoshev M. A. "Badiiy nutq asoslari" – Toshkent: Fan, 2016.
5. Axmedov N. "Ovozni boshqarish va diksiyani rivojlantirish" – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
6. Xudoyberganov A. "San'at va nutq madaniyati" – Toshkent: Sharq, 2020.
7. G'aniyeva D. "Musiqqa va nutq uyg'unligi" – Toshkent: O'zbekiston san'at akademiyasi nashriyoti, 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti (www.edu.uz)
9. O'zbekiston Milliy kutubxonasi (www.natlib.uz)
10. Turli musiqashunoslik maqolalari va tadqiqotlari joylangan ilmiy jurnallar.